# IV. INVESTITSIYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 23 429,8 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘sish sur’ati 2023- yilning yanvar-sentabriga nisbatan 129,1 % o‘sdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2 056,2 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 8,8 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 2,2 marta o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 21 373,6 mlrd. so‘m yoki jami investisiyalar hajmining 91,2 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 124,0 % o‘zlashtirildi.




Asosiy kapitalga investitsiyalar yangi asosiy fondlarni sotib olish va takror ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan xarajatlar majmuini bildiradi.

Asosiy kapitalga investitsiyalarning statistik hisobi, qo‘shimcha qiymat solig‘ini qo‘shgan holda, hisobot davrida amaldagi narxlarda, to‘lov amalga oshirilgan paytdan qat’iy nazar, haqiqatda o‘zlashtirilgan hajm miqdorida amalga oshiriladi.

So‘nggi 5 yildagi asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi shuni ko‘rsatmoqdaki, u deyarli 2,0 martaga ko‘payib, o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning hajmi dinamikasi, mlrd . so‘m**




So‘ngi yillardagi ularning o‘sish sur’atlarini ko‘radigan bo‘lsak, 2021- yilda eng past o‘sish sur’ati qayd etilganini va 80,6 % qayt etilgan, shundan so‘ng 2022-yillarda yana o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lib joriy davrda esa eng yuqori ko‘rsatkich 129,1 % o‘sish qayd etilganini ko‘rishimiz mumkin.

**Asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari dinamikasi, % da**




Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nibatan 3,7 punktga ko‘payib, 8,8 % ni yoki 2 056,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 21 373,6 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 91,2 foizi o‘zlashtirilib, 2023- yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 3,7 punktga kamaydi.

## Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar (2024- yil yanvar-sentabr)

| | mlrd. so‘m | o‘sish sur‘ati, % *da* | hajmga nisbatan, % *da* |
|---|---|---|---|
| **Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar** | **23 429,8** | **129,1** | **100,0** |
| **Markazlashgan investitsiyalar:** | **2 056,2** | **2,2 m.** | **8,8** |
| Budjet mablag‘idan | 293,6 | 49,7 | 1,3 |
| Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi | - | - | - |
| O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo‘lgan chet el kreditlari | 1 762,6 | 6,4 m. | 7,5 |
| Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi | - | - | - |
| **Markazlashmagan investitsiyalar:** | **21 373,6** | **124,0** | **91,2** |
| Korxona o‘z mablag‘lari | 2 855,0 | 75,6 | 12,2 |
| aholi mablag‘lari | 1 421,7 | 88,0 | 6,1 |
| to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya va kreditlar | 16 799,9 | 147,2 | 71,7 |
| tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari | 297,0 | 69,7 | 1,2 |

**Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi, % *da***
*(2024- yil yanvar- sentabr)*



**Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo‘yicha ulushi, % *da***
*(2024- yil yanvar- sentabr)*




**Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar**
*(jami hajmdagi ulushi, % da)*



Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko‘rsatkichi xorijiy investitsiya va kreditlar hisobiga to‘g‘ri kelib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 147,2 % ga oshgan.

## Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

| Hududlar | Jami | | shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar | |
|---|---|---|---|---|
| | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati, % da | mlrd. so‘m | o‘sish sur’ati, % da |
| | | | | |
| ➢ **Viloyat bo‘yicha** | **23 429,8** | **129,1** | **16799,9** | **147,2** |
| shaharlar: | | | | |
| ➢ Navoiy | 3 891,3 | 144,1 | 3087,1 | 2,2 m. |
| ➢ Zarafshon | 1 383,5 | 42,7 | 298,2 | 17,8 |
| ➢ G‘ozg‘on | 187,1 | 59,7 | 141,1 | 55,1 |
| tumanlar: | | | | |
| ➢ Karmana | 4 252,9 | 3,5 m | 2462,5 | 7,4 m. |
| ➢ Konimex | 881,0 | 124,6 | 248,2 | 135,7 |
| ➢ Qiziltepa | 570,9 | 61,2 | 208,3 | 75,1 |
| ➢ Navbahor | 493,4 | 86,7 | 149,1 | 125,0 |
| ➢ Nurota | 1 706,5 | 80,3 | 1467,7 | 79,9 |
| ➢ Tomdi | 8 292,5 | 167,5 | 7728,5 | 158,4 |
| ➢ Uchquduq | 1 238,7 | 2,3 m | 1002,4 | 2,9 m. |
| ➢ Xatirchi | 532,0 | 62,3 | 6,8 | 6,3 |

**Investorlar** – yuridik va jismoniy shaxslar bo‘lib, qarorlarni qabul qiluvchi va o‘z mablag‘lari, qarz mablag‘lari yoki jalb qilingan mablag‘larni investitsiya ko‘rinishida investitsion loyihalarga kiritishni amalga oshiruvchi hamda ulardan maqsadli foydalanilishini ta’minlab beruvchi investitsion faoliyat subyektlari hisoblanadi.

**Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o‘sish sur’atlari, % *da***




**Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % *da***



## Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

| | Jami | Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo‘yicha | |
|---|---|---|---|
| | | davlat | nodavlat |
| **Jami, *mlrd. so‘m*** | **23 429,8** | **1 220,9** | **22 208,9** |
| *shu jumladan*: umumiy hajmga nisbatan, % *da* | 100,0 | 5,2 | 94,8 |
| mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari | 13 206,8 | 923,3 | 12 283,5 |
| qurilish-montaj ishlari | 7 545,4 | 272,0 | 7 273,4 |
| boshqa harajatlar | 2 677,6 | 25,6 | 2 652,0 |

**Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, *mlrd. so‘m***



**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % *da***



Yangi qurilish

Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qurollantirish

Boshqalar

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 56,4 foiz, qurilish-montaj ishlari- 32,2 foiz hamda boshqa xarajatlar- 11,4 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq xo‘jaligida 507,5 mlrd. so‘m (jami investitsiylar hajmidagi ulushi 2,2 %), qurilishda 1 327,2 mlrd. so‘m (5,7 %), tashish va saqlash sohasida 159,3 mlrd. so‘m (0,7 %), sog‘liqni saqlash sohasida 106,1 mlrd. so‘m (0,5 %), ulgurji va chakana savdo sohasida 369,2 mlrd. so‘m (1,6 %), turar-joy qurilishida 869,5 ( 3,7 %), elektr, gaz bilan ta’minlashda 4 625,5 mlrd. so‘m (19,8 %), Ishlab chiqarish sanoati 11 558,2 mlrd. so‘m (49,3 %), tog’-kon sanoatida 3 239,3 mlrd. so‘m (13,8 %), hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 668,0 mlrd. so‘m (2,7 %) ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi**
*(umumiy hajmga nisbatan, % da)*

**Hududlarda o‘zlashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar**
**(jamiga nisbatan % da)**



2024- yilning yanvar-sentabr oylarida jami asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning asosiy qismi, ya’ni 70,2 foizi Viloyatning uch hududida, jumladan Tomdi tumanida – 35,4 %, Karmana tumanida –18,2 % va Navoiy shahrida – 16,6 % investitsiyalar o‘zlashtirildi.

**Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan asosiy kapitalga investitsiyalar**




## IJTIMOIY SOHA OBYEKTLARINING QURILISHI
## 2024- yil yanvar-sentabr

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 533,6 ming kv.m (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 85,9 %) bo‘lgan 1 605 ta turar joylar, jumladan 413,4 ming kv.m. (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 97,9 %) bo‘lgan 1 243 ta turar joylar qishloq joylarda ishga tushirildi.

**Turar-joylarni ishga tushirish**

| | *Xonadonlar soni, birlik* | *Maydoni, ming kv.m* |
|---|---|---|
| **Viloyat bo'yicha jami:** | **1 605** | **533,6** |
| *shaharlar* | | |
| Navoiy | 65 | 21,5 |
| Zarafshon | 48 | 15,8 |
| G'ozg'on | 12 | 4,0 |
| *tumanlarlar* | | |
| Konimex | 16 | 5,5 |
| Qiziltepa | 268 | 88,4 |
| Navbahor | 281 | 92,7 |
| Karmana | 301 | 96,3 |
| Nurota | 178 | 60,5 |
| Tomdi | 8 | 1,7 |
| Uchquduq | 18 | 5,7 |
| Xatirchi | 410 | 141,5 |

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida Navoiy viloyatida jami 8 738,9 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2023-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 116,3 foizni tashkil etdi.




**2024- yil yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi**




Joriy yilning yanvar- sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2 591,1 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish

ishlari 2023- yilning yanvar- sentabr oylariga nisbatan 2,3 marta, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 29,7 foizni tashkil etdi.

**Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi**
*(2024- yil yanvar- sentabr oylari)*

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha




**Qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlar ulushi, % da**

***Ma‘lumot uchun:*** *qurilish ishlari hajmi bu – o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta‘mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

**Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o‘sish sur‘ati, % *da***

## Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, % *da*




Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2024-yil yanvar-sentabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 35,9 foizi to‘g‘ri kelib, 2024-yil yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichi 5,6 punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023-yil yanvar-sentabriga nisbatan 101,1 foizni tashkil etgan holda 3 140,0 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

## Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi




Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 353,8 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 8 385,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 % ni tashkil etdi.

## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % *da*




## Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari *(2024- yil yanvar-sentabr oylari)*

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m | Nodavlat mulk | | Davlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi, % da | mlrd. so‘m | ulushi, % da |
| **Jami** | **8738,9** | **8385,1** | **100,0** | **353,8** | **100,0** |
| Navoiy sh. | 987,6 | 858,7 | 10,2 | 128,9 | 36,4 |
| Zarafshon sh. | 752,5 | 752,5 | 9,0 | - | - |
| G‘azg‘on sh. | 30,6 | 30,6 | 0,4 | - | - |
| Karmana t. | 542,9 | 542,9 | 6,5 | - | - |
| Konimex t. | 120 | 101,4 | 1,2 | 18,6 | 5,2 |
| Qiziltepa t. | 1122,6 | 1015,2 | 12,1 | 107,4 | 30,3 |
| Navbahor t. | 495 | 456,7 | 5,4 | 38,3 | 10,8 |
| Nurota t. | 508,3 | 508,3 | 6,1 | - | - |
| Tomdi t. | 1364,9 | 1354,5 | 16,2 | 10,4 | 2,9 |
| Uchquduq t. | 197,3 | 179,8 | 2,1 | 17,5 | 4,9 |
| Xatirchi t. | 471,7 | 438,9 | 5,2 | 32,8 | 9,3 |

**) 2024- yil ma’lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan*

## Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari, *% da*

**2024- yil yanvar-sentabr**




**2023- yil yanvar-sentabr**

***Ma‘lumot uchun:*** *Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 27,3 foiz tashkil etib, 2023-yilning yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 12,4 foiz punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2023-yilning yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 3,1 foiz punktga kamayib, 28,2 foizni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023-yilning yanvar-sentabr oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 9,3 foiz punktga kamayib, 44,5 foizni tashkil etdi.

**Jami bino va inshootlarni qurish – 6 762,6 mlrd. so‘m.**



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 48,9 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 26,1 % punktga ko‘paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 51,1 % (26,1 % punktga kamaydi).



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga kamayib va 3,3 % ni tashkil etdi.

Qolgan 96,7 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,3 % punktga ko’paydi.

**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- 482,5 mlrd. so‘m.**



Hududlar kesimida eng yuqori hajm Tomdi tumani (1 364,9 mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (1 122,6 mlrd. so‘m), Navoiy shahri (987,6 mlrd. so‘m) to‘g‘ri keldi.




Hududlar kesimida eng kam hajm G‘ozg‘on shahri (30,6 mlrd. so‘m), Konimex tumani (120,0 mlrd. so‘m) Uchquduq tumani (197,2 mlrd. so‘m), to‘g‘ri keldi.



## 2024- yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo‘yicha yuqori hajm, Tomdi tumani (1 364,9 mlrd. so‘m), Qiziltepa tumani (1 122,6 mlrd. so‘m), Navoiy shahri (987,6 mlrd. so‘m), va Zarafshon shahri (752,5 mlrd. so‘m) qayd etildi.

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so‘m |
|---|---|---|---|
| **Navoiy viloyati** | **8 738,9** | **116,3** | **7 115,2** |
| *shaharlar:* | | | |
| Navoiy | 987,6 | 102,5 | 711,5 |
| Zarafshon | 752,5 | 116,4 | 631,5 |
| G‘ozg‘on | 30,6 | 102,7 | 7,9 |
| *tumanlar:* | | | |
| Konimex | 120,0 | 90,2 | 38,7 |
| Qiziltepa | 1 122,6 | 103,3 | 826,2 |
| Navbahor | 495,0 | 97,5 | 399,1 |
| Karmana | 542,9 | 106,6 | 392,0 |
| Nurota | 508,3 | 78,3 | 397,7 |
| Tomdi | 1 364,9 | 7,9 m | 1 253,1 |
| Uchquduq | 197,3 | 145,0 | 174,9 |
| Xatirchi | 471,7 | 103,4 | 343,0 |

**) 2024- yil ma’lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan*

Ma’lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.